
JARAYON



#Kuz_qishga_tayyorgarlik

Qo'shtepa tumanida kuz-qish mavsumiga puxta tayyorgarlik ko'rish va uni betalofat o'tkazish, shuningdek "Yashil makon" umummilliy loyihasi bo'yicha belgilangan reja asosida amaliy ishlar olib borilmoqda. Ishchi guruh tomonidan tumandagi ijtimoiy sohalar ob'ektlari va aholi yashash joylarida kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik xolatlari o'rganilmoqda.

Xususan, bugun tuman hokimi I.Novikov va tuman prokurori A.Xudoyberganovlar elektr ta'minoti korxonasida bo'lib kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik holati bilan tanishdilar.



Tuman rahbari korxonaning kuz-qish mavsumida aholi xonadonlariga uzluksiz elektr energiyasi yetkazib berish, elektr tarmoqlari mustahkamligini oshirish, ularning ishonchli ishlashini ta'minlash, yuklama rejimida ishlayotgan transformatorlar quvvatini oshirish va boshqa texnikaviy zarur ishlarni amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar rejasi bilan tanishib, kuz-qish mavsumini betalofat o'tkazish yuzasidan mutasaddilarga o'zining tegishli ko'rsatmalarini berdi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook,](#)

2023-11-01 16:27:00